



O'ZKIMYOSANOAT
AKSIYADORLIK JAMIYATI

2023-yil 13-yanvar

14-yanvar - Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi



“O‘zkiyosanoat” AJ tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi va 14-yanvar - Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan “Vatan bilan ulg‘ayar shon-u shavkatim!” shiori ostida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbir tashkil etildi. Unda “O‘zkiyosanoat” AJ hamda tarmoq korxonalarini rahbar va xodimlari ishtirok etishdi. Dastlab Jamiyat rahbariyati tomonidan tizimda faoliyat yuritayotgan, shu bilan birga, yurtimiz tinchligini ta‘minlashga ulkan hissa qo‘shayotgan barcha Vatan himoyachilariga samimiy bayram tabrigi yo‘llandi.

Ko‘tarinki ruhda o‘tgan tadbir davomida tizim korxonalarini vakillari tomonidan bayram tabrigi sifatida she‘r va qo‘shiqlar, shuningdek, turli xil sahna ko‘rinishlari ham namoyish etildi.

Shuni ham alohida ta‘kidlab o‘tish lozim, “O‘zkiyosanoat” AJ tarmoq korxonalarini barchasida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi va 14-yanvar - Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan qator bayram tadbirlari o‘tkazilmoqda.



“Uzkimyo sanoat” AJ
MATBUOT XIZMATI



uzkiymyosanoat




uzkiymyosanoat.uz



(+99878) 140-74-26

Uzkiymyosanoat
HABUOT XIZMATI







“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/vatan-himoyachilari-kuni-munosabati-bilan-manaviy-marifiy-tadbir>